

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi  
“Konvension Markaz Majmuasi Direksiyasi” davlat muassasasining  
Ustavi**

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Konvension Markaz Majmuasi Direksiyasi” davlat muassasasi (keyingi o‘rinlarda “Konvension Markaz” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 03-apreldagi 139-son qaroriga muvofiq qayta tashkil etilgan.

“Konvension Markaz” “Konvension Markaz Majmuasi Direksiyasi” DUKning huquqiy vorisi hisoblandi.

2. Mazkur Ustav “Konvension Markaz”ning maqomi, maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlari, faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

3. “Konvension Markaz” yuridik shaxs hisoblanadi, alohida mol-mulkka, mustaqil balansga, hisob raqamlariga, shu jumladan, valyuta hisob raqamlariga, o‘z savdo belgisiga (logotip), shtamplar va blankalarga, tovar belgilariga, O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasviri tushirilgan, o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va boshqa rekvizitlarga ega bo‘lishi mumkin.

4. “Konvension Markaz”ning rasmiy to‘liq va qisqartirilgan nomi:  
davlat tilida:

lotin yozuvida – O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi “Konvension Markaz Majmuasi Direksiyasi” davlat muassasasi, qisqartirilgan nomi “Konvension Markaz”;

rus tilida – “Дирекция Комплекса Конвенцион Центр” государственное учреждение при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, qisqartirilgan nomi – “Конвенцион Центр”;

ingliz tilida – “Directorate of the Complex Convention Center” state institution under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan, qisqartirilgan nomi – “Convention Center”.

5. “Konvension Markaz”ning joylashgan joyi (pochta manzili): 110720, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, “Humson” MFY, Ugam ko‘chasi, 107-uy.

6. “Konvension Markaz” qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni sotib olishi va amalga oshirishi,

majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi, nizolarni hal etishda boshqa organlarda vakillik qilishi mumkin.

## **II. "KONVENSION MARKAZ"NING MAQSADLARI, VAZIFALARI, VA FUNKSIYALARI**

7. "Konvension Markaz" o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, shuningdek ushbu Ustavda ko'rsatilgan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

8. Quyidagilar "Konvension Markaz" faoliyatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yuksak darajada Xalqaro va milliy ilmiy forumlar, simpoziumlar, konferensiyalar, seminarlar va boshqa tadbirlar o'tkazish va tashkillashtirish;

Adliya organlari va muassasalari xodimlarining ish faoliyati samaradorligini oshirish va sog'lomlashtirish maqsadida turli xil tadbirlar sifatli tashkillashtirish hamda sanotariya xizmatlarini ko'rsatish;

"Konvension Markaz"ni samarali boshqarish va ishlatish;

"Konvension Markaz"da ommaviy axborot vositalarini jalb qilgan holda tadbirlar o'tkazish va tashkil etish uchun tijorat xizmatlarini ko'rsatish.

9. "Konvension Markaz" o'z oldiga qo'yilgan maqsadlari va vazifalariga erishish uchun quyidagi faoliyat turlarini amalga oshiradi:

ko'chmas mulkni ijaraga berish;

noturar joylarni ijaraga berish va boshqarish;

aholiga sifatli umumiy ovqatlanish, barlar va restoranlar xizmatlarini tashkil etish;

joylashtirish bo'yicha xizmatlarini tashkil etish;

turizm xizmatlari, sayohat va ekskursiyalar faoliyatini tashkil etish

kompleks sog'lomlashtirish(dam olish) maskanlari faoliyati tashkil etish;

sanatoriya va kurort faoliyati xizmatlarini tashkil etish;

aholiga keng turdagi tibbiy xizmatlar ko'rsatish;

oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari chakana savdo faoliyatini amalga oshirish;

internet va kompyuter xizmatlarini ko'rsatish, internet klublari ochishni tashkil etish;

oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar, bolalar o'yin maydonchalari, istiroh va tematik bog'lar faoliyatini tashkil etish;

konsert, bayram va ko'ngilochar dasturlar, musiqiy shoular faoliyatini tashkil etish.

10. “Konvension Markaz” faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirishi mumkin.

### **III. “KONVENSSION MARKAZ” FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

11. “Konvension Markaz”ni boshqarish Adliya vaziri tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod qilinadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

12. “Konvension Markaz” direktor va xodimlarining ish haqi hamda unga tenglashtirilgan to‘lovlar, shuningdek moddiy-rag‘batlantirish tariqasida beriladigan qo‘shimcha to‘lovlar miqdori Adliya vazirligi bilan kelishuvga asosan o‘rnatilgan tartibda belgilanadi.

13. “Konvension Markaz” direktori:

“Konvension Markaz” faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va unga yuklangan vazifalar va funksiyalar bajaralishi uchun shaxsan javob beradi;

direktor o‘rinbosari va “Konvension Markaz”ning tarkibiy bo‘linma rahbarlari vakolatlarini hamda tarkibiy bo‘linmalarining faoliyati uchun ularning javobgarligini belgilaydi;

“Konvension Markaz” tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

“Konvension Markaz”ning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi;

“Konvension Markaz” tarkibiy bo‘linmalari rahbarlarini lavozimiga tayinlaydi va lavozimidan ozod qiladi;

“Konvension Markaz” xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va bekor qiladi;

“Konvension Markaz”ning tashkiliy va moliyaviy masalalarini hal qiladi;

“Konvension Markaz”ning ichki tartib qoidalarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

“Konvension Markaz”ning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo‘yicha belgilangan tartibda qarorlar qabul qiladi;

qonunchilikka muvofiq “Konvension Markaz” nomidan ish olib boradi, barcha tashkilotlarda uning vakili sifatida qatnashadi, shartnomalar tuzadi, ishonchnomalar beradi;

“Konvension Markaz”ning xodimlarini rag‘batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortish masalalarini hal etadi;

“Konvension Markaz” xodimlarini alohida xizmatlari uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlash to‘g‘risidagi takliflarini Adliya vazirligiga kiritadi;

“Konvension Markaz” nomidan ishonchnomasiz ish ko‘radi, mamlakatimiz va xorijning barcha Davlat muassasasalari, firmalari va tashkilotlarida uning manfaatlarini ifodalaydi;

xizmatlar ko‘rsatishda joriy belgilangan narxlarga 30 (o‘ttiz) foizgacha chegirmalarni mustaqil tarzda belgilash;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;

kadrlarni tayyorlash va o‘qitish, ularning malakasini oshirish chora-tadbirlarini ko‘radi;

Direktor xizmat vazifasini sidqidildan va samarali bajarib kelayotgan yuqori malakali, tashabbuskor xodimlariga yuqori malakasi uchun xo‘jalik faoliyati mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan lavozim maoshining 200 foizigacha miqdoridan belgilanadigan (Adliya vazirligi organlari va muassasalariga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda) shaxsiy ustamalar belgilaydi;

Direktor o‘z xo‘jalik faoliyati mablag‘i hisobidan alohida xodimlarga ular ishda muvaffaqiyatlarga erishganligi va muhim topshiriqlarni bajarganligi uchun lavozim maoshining 1(bir) baravari miqdorida qo‘shimcha mukofotlashi mumkin.

“Konvension Markaz”ning xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Direktor o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarni bajarishda “Konvension Markaz” manfaatlarini ko‘zlab ish ko‘radi.

Direktor byudjetga va byudjetdan tashqari fondlarga to‘lov o‘z vaqtida to‘lanishi, ish haqi to‘lanishi, mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlar qondirilishi, bevosita ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ehtiyojlar uchun pul mablag‘lari o‘tkazilishi, o‘zining xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan “Konvension Markaz”ga yetkazilgan zarar, shu jumladan, “Konvension Markaz”ga berilgan davlat mulki yo‘qotilgan holat uchun ham qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

14. “Konvension Markaz”ga xodimlarini ishga qabul qilish qonunchilik hujjatlari hamda adliya organlari va muassasalariga ishga qabul qilish bo‘yicha Adliya vazirligining ichki hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi, shuningdek mavsumiy, yollanma va boshqa jismoniy shaxslarni fuqarolik-huquqiy shartnomalarni mustaqil tuzadi.

15. “Konvension Markaz” faoliyatni rivojlantirish maqsadida belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning yetakchi mutaxassislarini jalb qilish va xodimlarni malakasini oshirish, yangi xizmat turlarini yaratish uchun xalqaro konferensiya, simpoziumlarda ishtirok etish yuzasidan xizmat safarlariga jo‘natishi mumkin.

16. Boshqaruv, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning huquq va majburiyatlari mehnat shartnomalari, “Konvension Markaz”ning ichki tartib-

qoidalari, odob-ahloq qoidalari va mansab yo'riqnomalarida hamda fuqarolik-huquqiy shartnomalarda belgilanadi.

#### **IV. “KONVENSION MARKAZ”NING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI**

17. Quyidagilar “Konvension Markaz”ning moliyalashtirish manbaalari hisoblanadi:

“Konvension Markaz” tomonidan ko'rsatilgan barcha xizmatlardan kelib tushgan tushumlar;

“Konvension Markaz”ga biriktirilgan bino va inshootlarni ijaraga berishdan olingan tushumlar;

adliya organlari va muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari;

“Konvension Markaz”ning vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklari depozit hisoblariga joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

rezident va norezident jismoniy hamda yuridik shaxslarning homiylik xayriya mablag'lari;

xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grant mablag'lari, shuningdek qonunchilikka asosan ajratiladigan turli davlat subsidiyalari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

18. “Konvension Markaz” o'z faoliyati natijalarining buxgalteriya hisobini belgilangan tartibda amalga oshiradi, moliya va statistika hisobotlarini yuritadi.

19. “Konvension Markaz” o'ziga biriktirilgan mol-mulkka (bino-inshoot, transport vositalari va boshqa mol-mulklar) nisbatan qonunchilikda belgilab qo'yilgan doirada, o'z faoliyatining vazifa va funksiyalariga, Adliya vazirligining topshiriqlariga hamda mol-mulkning maqsadiga muvofiq holda egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini amalga oshiradi.

20. “Konvension Markaz”ning asosiy vositalari, tovar moddiy boyliklari, nomoddiy aktivlari, pul mablag'lari va majburiyatlari uning balansida qoladi hamda ular “Konvension Markaz”ga operativ boshqarish huquqi asosida biriktiriladi.

21. “Konvension Markaz”ga hadya, xayr-ehson yoki vasiyatnoma shaklida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'tkazilgan pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni, shuningdek, qonunchilikka muvofiq pullik xizmat ko'rsatishdan tushgan va uning tasarrufida bo'lgan mol-mulkdan foydalanilganligi hisobiga tushgan daromadni olishga va qonunchilik hujjatlariga muvofiq mustaqil sarf qilish huquqiga ega.

22. “Konvension Markaz”ning boshqaruv xodimlariga qonunchilikda adliya organlari va muassasalari xodimlariga belgilangan tartibda maxsus unvonlar – martaba darajalari beriladi, uzoq yillik xizmati va martaba darajalari uchun qo'shimcha haq va ustamalar to'lanadi.

23. “Konvension Markaz”ning boshqaruv xodimlariga avvalgi ish joyida uzoq yillik xizmati uchun berilgan ustama va qo‘shimcha to‘lovlar, maxsus va darajali unvonlar saqlab qolinadi.

24. “Konvension Markaz”ning xo‘jalik mablag‘lari hisobidan:  
moddiy yordam puli (qoida tariqasida mehnat ta‘tiliga chiqish paytida);  
bayramlarda va muhim sanalarda bir martalik pul mukofoti;  
ovqat puli uchun to‘lov (bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobarigacha);  
yo‘lkira xarajatlari uchun to‘lov (bazaviy hisoblash miqdorining ikki barobarigacha);

turar joyga ega bo‘lmagan “Konvension Markaz” xodimlariga ijara to‘lovlari uchun kompensatsiya;

“Oyning eng yaxshi xodimi” tanlovi g‘olibiga beriladigan moddiy rag‘batlantirish (lavoziy maoshining bir barobarigacha);

xodimlarni har chorak va yil yakunlari munosabati bilan lavoziy maoshining bir baravari miqdorida taqdirlash;

moddiy yordam va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa to‘lovlar.

## **V. “KONVENSSION MARKAZ”NING DAVLAT MUASSASASINING MOL-MULKI**

25. Tezkor boshqarish huquqi bilan Adliya vazirligi tomonidan “Konvension Markaz”ga biriktirilgan mulk, asosiy fondlar va aylanma mablag‘lar, xo‘jalik faoliyati mablag‘lari hisobidan xarid qilingan asosiy va nomoddiy aktivlar “Konvension Markaz”ning mol-mulkini tashkil etadi.

## **VI. BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOT YURITISH**

26. “Konvension Markaz”ni hisobot davri tugagach, tasdiqlangan shakllar bo‘yicha hisobotlar tuzadi. Moliyaviy hisobot va unga ilova qilinadigan boshqa hujjatlarni belgilangan muddatlarda vakolatli organlarga taqdim etadi.

27 “Konvension Markaz” hujjatlarning saqlanishi va ularni belgilangan tartibda Davlat arxiviga saqlash uchun topshirilishini ta‘minlaydi.

28. Tegishli jamg‘armalardan ajratilgan pul mablag‘larining sarflanishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oluvchi hisobotlar, har chorak yakuni bo‘yicha buxgalteriya balansi Adliya vazirligining Moliya-iqtisod boshqarmasiga taqdim etiladi.

29. Adliya organlari va muassasalarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan joriy yilda “Konvension Markaz” uchun ajratilgan mablag‘larning foydalanilmay qolgan qismi yilgi xarajatlar smetasi doirasida foydalaniladi.

## **VII. “KONVENSION MARKAZ”NING JAVOBGARLIGI**

30. “Konvension Markaz” o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan javob beradi. “Konvension Markaz”ning mol-mulki yetarli bo‘lmagan taqdirda Adliya vazirligi “Konvension Markaz”ning majburiyatlari bo‘yicha subsidiar javob beradi.

31. “Konvension Markaz” Adliya vazirligining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

## **VIII. “KONVENSION MARKAZ” FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI**

33. “Konvension Markaz” Adliya vazirligi bilan kelishgan holda, qonun hujjatlari talablariga rioya qilgan holda, O‘zbekiston Respublikasi hududida ham, uning tashqarisida ham filiallar tashkil etishi va vakolatxonalar ochishi mumkin.

34. “Konvension Markaz”ning filiallari va vakolatxonalari “Konvension Markaz” tomonidan tasdiqlangan nizom asosida “Konvension Markaz” nomidan ish ko‘radi.

35. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan vakolatxonalar va filiallar “Konvension Markaz” tomonidan tasdiqlangan nizom asosida va o‘zlari joylashgan mamlakatlarning qonun hujjatlariga muvofiq ish ko‘radilar.

## **XIII. “KONVENSION MARKAZ”NI TUGATISH VA QAYTA TASHKIL ETISH**

36. Mazkur Ustavga qonunchilikka muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

37. “Konvension Markaz” qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Adliya vazirligining buyrug‘i bo‘yicha yoki sudning qarori bo‘yicha tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi mumkin.

38. “Konvension Markaz”ning tugatilishi huquq va majburiyatlar huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxslarga o‘tmasdan “Konvension Markaz” faoliyati to‘xtatilishiga olib keladi, qayta tashkil etishda huquq va majburiyatlar huquqiy vorisga o‘tadi.